



MUTOLAAGA QAYTISHIMIZ ZARUR VA SHART

3

MANFAATLAR TO'QNASHUVI: IJTIMOIIY XAVFLI ILLAT

7

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2025-yil 27-iyun № 6 (1552)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

30-IYUN - YOSHLAR KUNI



KELAJAK RAVNAQINI TA'MINLOVCHI KATTA KUCH

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi kelajak avlodga, yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaraladi.



YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOT

30-iyun – Yoshlar kuniga bag'ishlangan oylik doirasida O'zbekistonda yosh avlodni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

19-iyun kuni "Sohil" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor va yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi.
(Davomi 2-sahifada).

BUGUNGI SONDA

DAVLAT RAMZI

Muqaddas
timsol 2

JARAYON

Maroqli o'tmoqda 4

OGOHO BO'LING!

"Tekin topgan
mol yomon, oxiri
qo'ymas omon" 5

GEOLOGIK QIDIRUV

Mineral-xomashyo
baza rivojlanmoqda 6

SO'RAGAN EDINGIZ

O'qish yillari ish
stajiga kiradimi? 8

SALOMATLIK

Kun isiganda
uyg'onadigan kasallik 9

LAVHA

Metallarning
xususiyatlari 11

HIKMAT

Muammo
kimniki? 12

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASIDA

TAJRIBA ALMASHISH, HAMKORLIKDA
YECHIMLAR IZLAB TOPISH MAYDONI

26-iyun kuni Metallurglar madaniyat saro-yida "Metallurgiya va ekologiya" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda vazirliklar, oliy o'quv yurtlari va sanoat korxonalarini vakillari, olimlar, muhandislar ishtirok etishdi.

Konferensiyani "O'zmetkombinat" AJ Loyiha ofisi rahbari Narimon Umerov ochdi. U sanoat va ilm-fan kuchlarini birlashtirishning ekologik va texnologik muammolarni hal qilishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdi.

Anjumanda Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev ham so'zga chiqib, kombinatning erishgan muvaffaqiyatlari va og'ir sanoatni rivojlantirishda fanning ahamiyati haqida gapirdi.

Shundan so'ng mutaxassislar va olimlarning ilmiy g'oyalari, ekologik tashabbuslar va metallurgiyada yangi texnologiyalar bo'yicha ma'ruzalari tinglandi. Ular o'z chiqishlarida metallarni qayta ishlash texnologiyalari, atrof-muhitni muhofaza qilish, innovatsiyalarga alohida urg'u berishdi.

Tushdan so'ng konferensiya ishtirokchilari kombinat o'quv markazida "Metallurgiya va ekologiya" mavzusidagi muhokamalarda qatnashdilar. Unda elektrda po'lat eritishda va prokat ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalar, atrof-muhitni muhofaza qilish va qora metallurgiya korxonalarida texnogen chiqind-



ilarni utilizatsiya qilish hamda xomashyo tanqisligi muammolarini hal qilish kabi mavzular bo'yicha taqdimot, muhokamalar bo'lib o'tdi.

Taqdimot va muhokamalardan so'ng ekspert komissiyasi a'zolari tomonidan eng yaxshi ma'ruzachilar aniqlandi. Ularga "O'zmetkombinat" AJning "Tashakkurnomasi" va esdalik sovg'alari topshirildi.

Bu Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi O'zbekiston metallurgiya sanoatining barqaror rivojlanishi sohasida tajriba almashish, ilmiy yutuqlardan foydalanish va hamkorlikda yechimlar izlab topish uchun yangi maydon bo'ldi.

Inom HOJIMURODOV.



2-IYUL - O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING DAVLAT
GERBI TASDIQLANGAN KUN

MUQADDAS
TIMSOL

Davlat ramzlari har bir mamlakatning suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi muqaddas timsoldir. O'zbekistonning davlat ramzlari xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etadi.

Mamlakat va jamiyatt taraqqiyoti hamda uning barqarorligida davlat ramzlarining alohida o'rni bor. Shu ma'noda, gerbimiz davlat va jamiyat hayoti, uning jahon hamjamiyatidagi o'rni hamda rolini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, har birimiz uchun iftixor timsoli hisoblanadi.

Davlatimiz gerbi tasviri muhrlarda va davlat idoralari blankalarida, rasmiy nashrlarda, qog'oz va tanga pullarda, qimmatli qog'ozlar va fuqarolik pasportida hamda qonunda belgilangan boshqa hujjatlardan joy olmoqda. O'zbekiston gerbi davlatimiz chegaralarida o'rnatildi.

O'zini shu tabarruk zamin fuqarosi deb bilgan, o'z mamlakati, xalqi bilan cheksiz faxrlangan har bir inson Davlat gerbini, shu singari boshqa bebaho ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarimiz bo'lgan davlat ramzlarini Vatanimiz kabi aziz va muqaddas deb e'tirof etishi, e'zozlashi tayin.

YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOT

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlar hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli ham mamlakatimizda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egalagan, tashabbuskor va sog'lom yoshlarni tarbiyalash eng asosiy vazifalardan biridir.

Prezidentimiz barcha darajadagi rahbarlarga murojaat etib, yoshlar bilan shug'ullanish, ularni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining eng asosiy vazifasi ekanligini qat'iy ta'kidlagan edi. O'z navbatida yoshlar ham yaratib berilayotgan sharoitlarga munosib javob bergan holda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda eng faol qatlam sifatida ishtirok etmoqdalar.

30-iyun - Yoshlar kuniga bag'ishlangan oylik doirasida O'zbekistonda yosh avlodni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan

tadbirlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

19-iyun kuni "Sohil" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi - Bosh direktor va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tashabbus korxona kasaba uyushma qo'mitasi ko'magida amalga oshirildi.

Uchrashuvni "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi va Bosh direktor Dilshod Axmedov olib bordi. U o'z so'zida kombinatning mamlakat sanoat sektoridagi barqaror o'rnini qayd etib, sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari ni ko'rsatib o'tdi.

Metallurgiya sanoatining kelajagida yoshlarning roliga alohida e'tibor qaratildi. Rahbar yosh mutaxassislar sohani modernizatsiya qilish va rivojlantirishda muhim bo'g'in bo'lishiga ishonch bildirdi.

Uchrashuvda yoshlar o'z fikr-mulohazalarini, takliflarini bildirdilar.



Savollarga batafsil javob oldilar.

Bu tadbir kombinat rahbariyati ochiq muloqotga, yoshlarning tashabbusini qo'llab-quvvatlashga va foydali va samarali hamkorlikka tayyorligini tasdiqladi.

Yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytiril-

sa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Shu bois O'zbekiston yoshlarga yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

27-IYUN - MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

MUTOLAAGA QAYTISHIMIZ ZARUR VA SHART

Axborot globallashuvi jarayonida hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etishimiz juda qiyin. Ayniqsa, har bir sohada bo'layotgan o'zgarishlar, imkoniyatlar bugun ushbu jarayonda axborot tezlashuvini, o'zaro fikr almashishni talab etadi.

Televidenie, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma'lumotlar tezkorlik bilan aholiga yetkazilmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda elektron ommaviy axborot vositalari gullab-yashnamoqda. Biroq, gazeta-jurnal va kitobga e'tibor sustroq. To'g'ri ular moddiy foyda keltirmasligi yoki aholiga biroz kechroq ma'lumot yetkazishi mumkin. Shunisi aniqki, insonning fikrini shakllantirishda, ma'naviyat va ma'rifatini oshirishda ularga teng keladigani yo'q.

Gazeta-jurnal va kitobga e'tibor sustlashib borayotgan bir paytda ma'naviy bo'shliq tobora kattalashib qolganday bo'lyapti. Ba'zida tupp-tuzuk korxona, tashkilot boshliqlarining kundalik nashrlarni va kitob

o'qimasliklari tufayli bozordagi pistafurush saviyasiga tushib qolishlariga ham guvoh bo'lib turibmiz. Jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar taqdirini hal qiladigan rahbarlarning ma'naviyati oqsayotgan bo'lsa, ular bilan yuksak ma'naviyatli jamiyat qurib bo'ladimi?

Achinarlisi, turli tashkilotlar o'rtasidagi savodsizlarcha yozilgan rasmiy hujjatlarni ko'rib, yuraging achishib ketadi. Bu gazeta, kitob o'qimaslik natijasidir. Chunki gazeta, kitob mutolaa qilgan odamning ko'ziga imlo xatolar oshdan chiqqan toshdek yaqqol ko'rinadi.

Hozir "Gazeta o'qimayman", deyish maqtanishning bir turiga aylangan. Lekin bu gapni aytadiganlar bilan biroz suhbatlashsangiz, ular ijtimoiy tarmoqlarda ko'rgan yoki o'qiganlari dunyoning olis chetida maymun bolalagani-yu, yana allambalolar to'g'risidagi keraksiz, oldi-qochdi gaplar bilan miyangizni

g'ovlatib tashlaydi.

Ayni zamonda esa insoniyatning ma'naviyatga ehtiyoji har qachongidan ham kuchli. Ba'zi xorij davlatlarida aynan ma'naviyat, ma'rifat yetishmayotgani sababli turli noxush voqealar yuz berayotganidan ham tegishli xulosa chiqarsa bo'ladi.

Odamzod faqat qorni to'qligi, usti butligi, moddiy ta'minoti bilangina insoniy fazilatlariga erisholmaydi. Shuning uchun ham kitob, gazeta-jurnal mutolaasiga qaytishimiz zarur va shart...

Fursatdan foydalanib barcha jurnalistlarni, qalam ahlini kasb bayramlari bilan chin qalbidan tabriklab, ularga sihat-salomatlik, ijodiy faoliyatlarida ulkan yutuqlar, xonadonlariga tinchlik-xotirjamlik, baxt-saodat va fayzu baraka tilayman.

Abdusalom ABDULLAYEV,
mehnat faxriysi.

MUNOSIB MEHNAT SHAROITLARI TA'MINLANMOQDA

Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligiga korxonalarda eng asosiy vazifalar qatorida e'tibor qaratiladi. Bu sohada olib borilayotgan chora-tadbirlar tufayli ham ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar tufayli kishilarning halok bo'lishi, turli darajada jarohatlar olishi kamayishiga erishilmoqda. Kombinatimizning Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamenti xodimlari korxona ishchi-xodimlarining mehnatini muhofaza qilish, ularga mehnat sharoiti yaratilishini nazorat qilish, baxtsiz hodisalar va yong'inlarning oldini olish hamda mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyat ko'rsatmoqdalar.

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati "Sog'liqni muhofaza qilish va xavfsiz mehnatni ta'minlash menedjmenti" ISO 45001:2018 xalqaro standart talablariga muvofiqligi bo'yicha xalqaro va milliy sertifikatini olgan. Ushbu xalqaro standart talablari asosida SXvaMMD xodimlari tomonidan tarkibiy bo'linmalarda jadval asosida ichki audit o'tkazib kelinmoqda.

Kombinat Boshqaruv raisi – Bosh direktorning "Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va kasbiy salomatlik tizimi bo'yicha 2025-yildagi vazifalari to'g'risidagi" 20-sonli buyrug'iga asosan, kombinat ishchi-xodimlari uchun munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash maqsadida 55 banddan iborat chora-tadbirlar belgilangan. Bugungi kunda ushbu chora-tadbirlarning ijrosi ta'minlanib kelinmoqda. Bundan tashqari:

- kombinat tomonidan xodimlar jadval asosida tibbiy ko'rikdan o'tishlari va xodimlarga tibbiy xizmat ko'rsatilishi uchun 2025-yilda 6 mlrd. 733 mln. so'm mablag' ajratilgan.

- ishga kirgan xodimlar maxsus kiyim, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari bilan kombinat tomonidan bepul ta'minlanib, ushbu vositalar uchun 20 mlrd. 453 mln. so'm mablag' ajratilgan.

- kombinatda umumiy soni 11 ta oshxona mavjud bo'lib, ushbu oshxonalar kombinat xodimlari uchun tunu-kun xizmat ko'rsatib kelmoqda.

- SXvaMMD xodimlari tomonidan kombi-

nat kasaba uyushmasi vakillari va "Metallurg" nomli shahar shifoxonasi shifokorlari ishtirokida tarkibiy bo'linmalarda gigiena talablari hamda xodimlarning sog'lig'ini nazorat qilish maqsadida, tibbiy muhandislik brigadasi tuzilgan bo'lib, ushbu brigada tomonidan tarkibiy bo'linmalarda jadval asosida nazorat tekshiruv ishlari o'tkazilib kelinmoqda.

Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamentining malakali mutaxassislari tomonidan jadval asosida kombinat tarkibiy bo'linmalari xodimlari kran haydovchisi, yuk iluvchi hamda gaz xo'jaligi va bosim ostida ishlovchi uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operator kasblari bo'yicha o'qitimoqda va kurs davomida xodimlarning mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlari rivojlantirilmoqda

Kombinat rahbar va mutaxassislarning mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi sohasida bilimlari tekshirilishi tashkil etilgan bo'lib, doimiy faoliyatdagi komissiya tomonidan xodimlar bilimlari elektron tarzda sinallishi yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari xodimlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida xodimlar tb.uzbekstell.uz elektron platformasi orqali savolnomalar bilan tanishishlari hamda ushbu savolnomalarga tayyorgarlik ko'rishlari uchun zarur qo'llanmalar-dan foydalanishlari mumkin.

Gulmira TOSHMATOVA,
Sanoat xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i.



MUHIM O'RINLARI BOR

Elektrotexnika laboratoriyasi kombinatning elektr jihozlari, rele himoyasi va avtomatlashtirish qurilmalari, hisobga olish va o'lchash tizimlari, avtomatlashtirish va signalizatsiya tizimlari, sinov qurilmalari va apparatlarining muammosiz ishonchli ishlashini ta'minlaydi.

Shuningdek, elektr jihozlarni, kabellarni, asboblarni, rele himoyasi va avtomatlashtirish vositalarini profilaktik sinovdan o'tkazish, elektr qurilmalarini ishlatish paytida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish, yoritish me'yorlarini o'lchash, yerga ulash xalqalarini tekshirish, mavjud uskunalarini modernizatsiya qilish kabi vazifalarni ham aynan shu jamoa vakillari bajarishadi.

Bunday vazifalarni yuqori tajriba va malakaga ega bo'lgan ishchi-xodimlarga bajarishi mumkin.

Nafaqat kombinatda balki, shahrimizda ham yagona bo'lgan "ETL-10" maxsus mashinasi – elektr jihozlari, kabellari kabilardagi nosozliklarni qarda bo'lishidan qat'iy nazar uni aniqlashda tengi yo'q. Muhandis-elektrik Temur Xusanov hamda rele himoyasi va avtomatlashtirish elektromontyori Useyn Aliyev mana shu ko'chma laboratoriya yordamida nosozliklarni tez aniqlab, uni bartaraf etishda katta tajriba va malaka to'plaganlar.

Artur KULIYEV.

"DOLZARB 30 KUN"DA**YONG'IN XAVFSIZLIGI CHORALARI YANADA KUCHAYTIRILDI**

Mamlakatimizda 20-maydan 20-iyun kuniga qadar "Dolzarb 30 kun" deb nomlangan maxsus yong'in xavfsizligi oyligi o'tkazildi. "O'zmetkombinat" AJda "Dolzarb 30 kun"da kombinat tamonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi-ga asosan ishlar tashkil etildi. Tarkibiy bo'linmalarda yong'in xavfsizligi choralari yanada kuchaytirildi.

Kombinatning tarkibiy bo'linmalarida favqulodda chiqish eshiklari, binolardan evakuatsiya qilish sxemalari va favqulodda holatda yig'ilish joylari, fuqaro muhofazasi himoya inshootlari, birlamchi o't o'chirish vositalari, yong'in-himoya xabarlovchilari va yong'inni avtomatik o'chirish tizimlarining ishchi holati tekshirishdan o'tkazildi. Yong'inga qarshi suv ta'minoti (gidrant, sig'im, suv havzalari, ichki yong'in kranlari) soz holatga keltirildi.

Shuningdek, bino va inshootlar va unga tutash hududlar yonishga moil bo'lgan begona o'tlar, qurigan o'simliklar va chiqindilardan tozalandi.



Energetika, Elektr tarmoqlar va podstantsiyalar, Ferroqotishmalar va Temir parchalarini qayta ishlash, Navli prokatlash, Elektrda po'lat eritish, Temir parchalarini qayta ishlash, Zoldir prokatlash va Quyuv-mexanika bo'linmalarida, Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika boshqarmasi, Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari laboratoriyasi, kombinat markaziy laboratoriyasi, Ijroiya apparati kabi mehnat jamoalarida "O'zmetkombinat" AJ obektlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashni



tashkil etish bo'limi (OYOXTTEB) korxonaning Favqulodda vaziyatlar va radiatsiya xavfsizligi bo'limi bilan hamkorlikda ishchi-xodimlar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazdi.

Bu amaliy mashg'ulotlarda ishchi-xodimlarga yong'in xavfsizligini ta'minlash, yong'inlarning oldini olish, maxsus o't o'chirish moslamalaridan foydalanish kabilar bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Javlon UMRZOQOV,
"O'zmetkombinat" AJning
OYOXTTEB katta inspektori.

**YOZGI TA'TIL MAROQLI O'TMOQDA**

Farzandlarimiz uchun yoz – o'qishdan tanaffus qilish, salqin suv bilan to'ldirilgan hovuzda cho'milish, oromgohlarda maroqli dam olish vaqtidir. Oromgohlarda bolalar toza havo va tabiat qo'ynida maroqli dam olib, yangi do'stlar orttiradilar, hayot ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari yosh avlodning jismoniy va ma'naviy rivojlanishi, salomatligini mustahkamlash, shuningdek, yozgi ta'tilni mazmunli o'tkazishda muhim o'rin tutadi. Bu oromgohlar nafaqat bolalarga dam olish imkonini beradi, balki ularning intellektual salohiyatini oshirish, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi.

Metallurglar farzandlari "O'zmetkombinat" AJ, kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasiga qarashli Bekobod shahrida joylashgan "Sohil" yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohida dam olishadi. Joriy yilning 12-iyun kundan "Sohil" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi o'zining ish faoliyatini boshlab, birinchi mavsumga bolajonlarni qabul qildi.

O'n ikki kun mobaynida bolalar oromgohda professional murabbiylar boshchiligidagi suzishni o'rgandilar. Qiziqarli o'yinlar va sport musobaqalarida ishtirok etdilar, ijodiy to'garaklarda san'at, hunarmandchilik, musiqa bilan shug'ullandilar.

An'anaviy yozgi mashg'ulotlar va ko'ngilochar to'garaklarning eng yaxshi uyg'unligi, o'ziga xos mustaqil bo'lish tajribasi o'g'il, qizlar uchun oromgohni unutilmas qildi.

Endilikda ikkinchi mavsumda "Sohil"da bolalar maroqli dam olishmoqda.

Bahodir RAHMONQULOV.

**"O'ZMETKOMBINAT" AJDA BIRINCHI INTELEKTUAL QUIZ O'TKAZILDI****BILIM VA SPORT UYG'UNLIGI**

Bugungi kunda savollarga javob berish asosida o'yin-sport shaklida o'tkaziladigan intellektual quiz o'yini tez ommalashib bormoqda. "O'zmetkombinat" AJda ham korxona kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan "UMK-QUIZ" intellektual sport musobaqasi dastlabki marta o'tkazildi.

Tadbirda kombinatning turli tarkibiy bo'linmalari xodimlaridan iborat to'rtta jamoa ishtirok etdi. Intellektual musobaqalarda turli xil bilim sohalariga oid savollarga, tezkorlik bilan mantiqiy aniq javoblar berish talab qilinar edi. Ishtirokchilarning metallurgiya sohasi, mehnat xavfsizligi, birinchi yordam ko'rsatish va sport yo'nalishlari bo'yicha bilim va mahoratlari qiziqarli shartlar asosida sinovdan o'tkazildi.

Tashkilotchilarning so'zlariga ko'ra, quizning asosiy maqsadi nafaqat eng bilimdon va faol ishtirokchilarni aniqlash, balki jamoani shakllantirish, birdamlikni mustahkamlash uchun qulay, ijobiy muhit yaratish edi.

Barcha ishtirokchi jamoalarga kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan turli nominatsiyalar bo'yicha tashakkurnomalar va har bir ishtirokchiga esdalik sovg'alari topshirildi.



SAYYOR SUD MAJLISIDA

“TEKIN TOPGAN MOL YOMON, OXIRI QO‘YMAS OMON”

“O‘zmetkombinat” Ajda tashmachilarga qarshi qattiq kurash olib boriladi. Ogoh bo‘lingki, bu yo‘lga kirganlarning oxiri “voy” bo‘ladi. Tashmachilar qo‘lga tushib, yuzlari shuvit bo‘ladi. Xalqimizning “Tekin topgan mol yomon, oxiri qo‘ymas omon” maqolining ma‘nosini kech bo‘lsada to‘liq tushunib olishadi.

Joriy yilning 19-may kuni Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod shahar sudida kombinat mulkiga ko‘z olaytirgan Aleksandr Eshmatovga nisbatan ma‘muriy ish ko‘rib chiqildi.

“Shingil stil” MCHJ ishchisi Aleksandr 2025-yil 7-may kuni kombinat hududidagi 4-sonli nazorat o‘tish joyidan chiqayotganida u bosh-qaruvidagi “HOWO” rusumli avtomashinasida rangli metallarni olib chiqmoqchi bo‘ladi. Shu g‘arazli maqsadini amalga oshirish uchun avtomashina saloniga rangli metallar yashirib qo‘yadi. U soat 09:00 larda “O‘zmetkombinat” Ajga qarashli 4-sonli nazorat o‘tish joyidan chiqayotganida siri fosh bo‘lib qoladi. Uning mashinasidan qorovullar umumiy qiymati 2 058 000 so‘m bo‘lgan, og‘irligi 49 kilogramm rangli metallni topib olishadi.

Sudda A. Eshmatov qilgan ishidan chin ko‘ngildan pushaymondaligini bildirib, boshqa bu holat takrorlanmasligiga so‘z beradi. Bu holatdan o‘ziga tegishli xulosa chiqarib olgan-

ligini aytib, suddan yengillik berishni so‘radi.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarning aybi uning sud majlisida bergan iqrorlik ko‘rsatuvidan tashqari, dastlabki surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma‘muriy bayonnoma, ashyoviy dalilni olish bayonnoma, tushuntirish xatlari hamda to‘plangan ish hujjatlariga asosan to‘liq o‘z isbotini topganligi-



ni aniqladi.

Huquqbuzarga nisbatan jazo qo‘llashda uning shaxsi, yoshi, oilaviy sharoiti va moddiy ahvoli, aybiga iqrorligi kabilar inobatga olinib, unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosi qo‘llanildi.

Aleksandr Eshmatov O‘zbekiston Respublikasi MjTKning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topildi. Unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida 375 000 so‘m jarima jazosi berildi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod shahar sudi sud‘yasi.

"ASR VABOSI"

GIYOHVANDLIK - TANAZZULGA BOSHLOVCHI ILLAT



"Asr vabosi" nomini olgan giyohvandlik insonning osuda hayotiga rahna solib, ongini o‘ziga bo‘ysundiruvchi zahri qotildir. Bu shunday qurolki, o‘z domiga ilintirgan odamni razolat dunyosiga yetaklaydi va bu jarayonda inson jamiyatdagi o‘rnini yo‘qota boshlaganini anglamay qoladi.

Giyohvandlik - inson ma‘naviyatiga zid bo‘lgan, uning ijtimoiy-ruhiy holatini butkul izdan chiqaradigan g‘oyat xatarli illat, bedavo xastalik. Mutaxassislarining fikriga ko‘ra giyohvand o‘rtacha yigirma besh yil umr ko‘radi. U faqatgina o‘z sog‘ligini yo‘qotmay, balki o‘z xatti-harakatlarini ham nazorat qila olmaydi. Giyohvandlik nafaqat bir shaxsni, balki butun bir xalqni, millatni yo‘q qilib yuborishga qodir.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra dunyoda 500 milliondan ortiq

odam giyohvandlik dardiga yo‘liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko‘z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘ylamay bosilgan qadam ko‘p hollarda afsus-nadomatga sabab bo‘ladi. Nega deganda tavakkalchilik hamisha ham muvaffaqiyatga yetaklayvermaydi. Aholi orasida olib borilayotgan profilaktik targ‘ibot va tushuntirish ishlariga qaramasdan, hududlarda huquqbuzarlik va jinoyatlar soni kamaymayapti. Afsuski, tavakkalchilikni xush ko‘radigan ayrim napok kimsalar o‘z g‘araz maqsadlarini amalga oshirish uchun har qanday razilikdan tap tortmaydi.

Giyohvandlik butun dunyoda keng jamoatchilikni tashvishga solayotgan eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zero, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi juda yuqori. Narkotik va psixotrop moddalarni iste‘mol qilishning ortishi bilan birinchi o‘rinda og‘ir kasalliklar va jinoyatlar sodir etilishi ko‘payadi.

Giyohvandlik ko‘chasiga kirib qolish kishilarda turli xilda kechadi. Ba‘zilar to‘qlikka sho‘xlik qilsa, boshqalar o‘zi bilmagan holda aldovlar natijasida uning qurboniga aylanadi. Ushbu illatga ruju qo‘yganlarning, ayniqsa, yoshlarning bu ajal girdobiga

tushib qolishida ko‘pincha oiladagi muhit yoki bee‘tiborlik sabab bo‘ladi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini bekor o‘tkazishi, ota-onalarning farzandini haddan tashqari erkatlatishi va ular tarbiyasiga beparvoligi yuqorida keltirilgan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Giyohvandlik balosi insoniyatni tanazzul botqog‘i sari boshlaydigan eng xavfli illat ekanini unutmaylik. Bu toifadagi jinoyatga qo‘l urganlar qonuniy va adolatli jazoga tortilishi muqarrar.

Shu bilan birga, bunday qilmishlarning oldini olish nafaqat ichki ishlar va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari, balki keng jamoatchilikning ishiga aylanmog‘i kerak.

Mirzaburxon DO‘STMURODOV,



HISOR MARKAZIY GEOLOGIYA QIDIRUV EKSPEDITSIYASIGA PRESS-TUR TASHKIL QILINDI

GEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI: RESPUBLIKA MINERAL-XOMASHYO BAZASINI RIVOJLANTIRADI

Joriy yilning 11-13-iyun kunlari Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "O'zbek geologiya qidiruv" AJ Ommaviy axborot vositalari vakillari uchun Hisor markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasiga press-tur uyushtirdi. Unda "O'zmetkombinat" AJ Matbuot xizmati xodimi ham ishtirok etdi.

Tadbir davomida jurnalistlar Aksiyadorlik jamiyatining geologiya sohasidagi keng ko'lamli faoliyati, istiqbolli loyihalar, zamonaviy laboratoriyalar va eng yangi texnologiyalar bilan tanishdilar.

Bugungi kunda kompaniya zamonaviy va yuqori samarali uskunalar, ilg'or texnika va innovatsion texnologiyalar orqali hududlarda geologiya-qidiruv ishlarini jadal amalga oshirib, respublika mineral-xomashyo bazasini rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda. O'tgan davrda yer qa'ini geologik o'rganish, xususan rangli qimmatbaho metallar va boshqa foydali qazilma maydonlarida geologik-qidiruv ishlarini tashkil etish, rangli va qimmatbaho metallarning istiqbolli maydonlarini topish uchun ilmiy-tematik ishlar, bashoratli resurslar va mavjud maydonlarning mayda, o'rta va yirik masshtabli geologik xaritalarini yaratish asosida respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish borasida qator ishlarni amalga oshirdi.

2025-yil davomida 100 dan ortiq loyiha doirasida qidiruv ishlari rejalashtirilgan. Dastur doirasida oltin, kumush, mis, qo'rg'o-

nalar faqat 50-60 foiz darajada olinayotgan bo'lsa, hozirgi texnologiyalar yordamida bu ko'rsatkich deyarli 100 foizga yetgan. Bu esa tahlillar aniqligini oshirib, yo'qotishlarni kamaytiradi. Shuningdek, jamiyat zamonaviy laboratoriyalar bilan jihozlangan bo'lib, hozirda kimyoviy elementlar soni ham oshib tahlil jarayonlari 60 - 70 ta elementdan oshgan. Bu esa noyob yer elementlari va kamyob metallar bo'yicha aniq, sifatli ma'lumotlar olishga xizmat qiladi.

Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi Respublikamiz hududining Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatining janubiy hududlarida qattiq foydali qazilmalar bo'yicha geologik qidiruv ishlarini olib boradi.

Ekspeditsiya o'z faoliyati davomida Respublikamizning turli viloyatlarida geologik qidiruv ishlarini olib borib, bir nechta ma'danli

geologik ishlar asosan og'ir sharoitdagi tog'li hududlarda amalga oshiriladi.

Jurnalistlar chuqur burg'ulash texnologiyalari (1900 metrgacha) va yuqori aniqlikdagi namunalarni tahlil qilish qo'llaniladigan Akba uchastkasida burg'ulash ishlarining borishi bilan tanishdilar.

Hozirgi kunda Akba oltin konining g'arbiy tomonida Sharqiy Kauluk oltin namoyonida dastlabki baholash va shimol tomonidagi Shimoliy Akba uchastkasida yer usti tog' lahm-lari va kolonkali burg'i quduqlari o'tish orqali izlash ishlari davom ettirilmoqda. Akba koni atrofida olib borilayotgan geologik qidiruv ishlari natijasi shuni ko'rsatadiki bu konning yon qanotlari o'rganilib, kelajakda 50 tonnaga yaqin oltin zahiralari aniqlanib, respublika xomashyo bazasining rivojlantirilishiga katta hissa qo'shiladi.

Jurnalistlar Qashqadaryo viloyati Kitob geologik milliy tabiat bog'i va xalqaro miqyosda tan olingan Zinzilbon geologik bo'limiga tashrif buyurishdi. Kompaniya mutaxassis-lari jurnalistlarning savollariga javob berishdi va mamlakatning mineral xomashyo bazasini yanada rivojlantirish rejalari bilan o'rtoqlashdilar.

Ravshan BOLTABOYEV.



shin, rux, volfram kabi rudali foydali qazilmalar hamda norudali minerallar – qurilish materiallari va kimyo sanoatida qo'llaniladigan resurslar bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda.

Samarqand Markaziy geologiya-qidiruv ekspeditsiyasida ekskursiya doirasida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Kompaniya Bosh muhandisining o'rinbosari Bektosh Yeshmurzayev va bo'lim boshlig'i Mahmud Rizayev joriy ishlar va kelajak rejalari bo'yicha taqdimotlar o'tkazdilar.

Press-tur ishtirokchilari uchun Samarqand shahridagi ruda namunalari tahlil qilinadigan analitik laboratoriya majmuasida ekskursiya o'tkazildi.

Kompaniya zamonaviy burg'ilash uskunalar orqali 1200-1900 metr chuqurlikkacha burg'ilash ishlarini bajarmoqda. Avval namu-

va noma'dan foydali qazilma konlarini topib, zahiralarni aniqlab Davlat zahiralari balansiga topshirgan. Bundan tashqari ko'plab istiqbolli maydonlar aniqlanib, bashorat resurslari hisoblangan va istiqbolli maydonlar qatoriga kiritilgan.

2025-yilda Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi tomonidan jami 24 ta loyiha doirasida geologik qidiruv ishlari amalga oshirilmoqda.

Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi asosan oltin, volfram, rangli va noyob metallar hamda noruda foydali qazilmalarni izlash hamda baholash ishlari bilan shug'ullanadi. Geologik qidiruv ishlari yer usti va yer osti tog' lahimlari hamda burg'ilash ishlari yordamida amalga oshiriladi. Ekspeditsiya tomonidan olib borilayotgan



MANFAATLAR TO'QNASHUVI: IJTIMOIIY XAVFLI ILLAT

Korrupsiyaning asosini tashkil qiluvchi omillardan biri, bu manfaatlar to'qnashuvi muammosidir. Kundalik hayotimizda manfaatlar to'qnashuvi haqida ko'p eshitganmiz va ba'zida bunday holatlar-ga duch kelganmiz. Bu jamiyatga katta zarar keltiradigan illatlardan biri bo'lib, u bor joyda sohalar rivojlanish o'rniga, orqaga ketadi, adolatsizlik bo'ladi, o'zaro ishonch so'nadi, mutaxassislar salohiyati ro'yobga chiqmaydi.

Manfaatlar to'qnashuvining ijtimoiy xavfliligi, uning ayrim ko'rinishlarining fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lishidadir. Bu o'z navbatida korrupsiyaga oid jinoyatlar, masalan, hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishi yoki vakolati doirasidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, mansab soxtakorligi uchun javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvi bu shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaati mansab majburiyatlarini ob'ektiv va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat hamdir. O'z vaqtida bunga qarshi keskin kurashilsa, ya'ni manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yilsa, korrupsiya barham topadi, ish faoliyatida o'zgarish, rivojlanish bo'ladi.


Davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish uchun "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risi-

da"gi qonunning qabul qilingani nafaqat davlat fuqarolik xizmatchilarining xizmat vazifalarini samarali bajarishlariga, balki xizmatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suiiste'molliklarni bartaraf etishiga, davlat tashkilotlariga nisbatan aholining ishonchi oshishiga xizmat qiladi.

Bu qonun korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini oshirishda muhim qadam bo'ldi.

Qonun manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni yo'qotish hamda uni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Qonunga muvofiq, har bir xodim korporativ va kasbiy andozalarga rioya qilishi, shaxsiy manfaatlarining o'z kasbiy majburiyatlariga ta'sir etishiga yo'l qo'ymasdan, faqat kompaniya manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi shart.

"O'zmetkombinat" AJ faoliyatida ham bu qonun kelgusi taraqqiyotimizda biz tayanadigan muhim dasturilamaldir.



Davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ishlovchi barcha darajadagi mansabdor shaxslar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishi mumkin. Shu sababli davlat hokimiyati tizimidagi manfaatlar to'qnashuvini ijobiy hal qilish hozirgi davrda korrupsiyaga qarshi kurashning muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

Manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi barcha omillar albat-ta davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hamda uning qonuniy, adolatli va shaffof bo'lgan tizimiga putur yetkazishi mumkin.

Har bir davlat organi mansabdor shaxslari davlat va jamiyat oldida-gi o'z xizmat vazifasini vijdonan, ochiq va shaffof tarzda amalga oshirsa, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishining oldini olgan va jamiyatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan hisoblanadi.

Butun kombinatning obro'si va muvaffaqiyati har bir xodimga bog'liqdir. Shuning uchun har bir metallurg "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunga rioya qil-

ishi muhim. Kombinatning barcha xodimlarini halollik va shaffoflik madaniyatini shakllantirish jara-yonida faol ishtirok etishlari davr talabidir.

Biz bir yoqadan bosh chiqarib, manfaatlar to'qnashuviga, korrupsiyaga qarshi kurashsak albat-ta birgalikda kombinatimizni korrupsiyadan holi sohaga aylantira olishimiz mumkin.

Qonunlarga qat'iy rioya etish, davlatlar taraqqiyotiga, aholining yashash tarzini yanada yaxshilashga jiddiy to'siq bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashish ham qonuniy, ham insoniy burchimiz ekanini har birimiz doimo yodda tutishimiz zarur. Agarda har bir xodim kombinatimizni jinoyatchilikdan, korrupsiyadan xoli, tinch va xavfsiz sohaga aylantirishga o'z hissasini qo'shsa ko'zlangan maqsadimizga albat-ta erishamiz.

Akmal SHARIPOV,
"O'zmetkombinat" AJ
Boshqaruvi raisi o'rinbosari
- Umumiy masalalar bo'yicha
direktor.

SIZ QANDAY "KANAL" YOKI GURUHLARNI KUZATYAPSIZ?

IJTIMOIIY TARMOQLARDAN TO'G'RI FOYDALANYAPSIZMI?

Mahalla kuyda, ko'chada yurganda bir narsaga guvoh bo'lib qolasan kishi. Yoshlarning hammasida telefon-ayfon bor. Albat-ta telefonning foydali jihatlari ko'p. Lekin uning yomon tarafi ham borligini unutib qo'yomoqdamiz.

Internet xalq xo'jaligining barcha sohalarida o'zining qulayliklari bilan manfaat keltirmoqda. Axborot almashinuvining tezligi va qulayligi, hisob-kitoblarning tezligi va narxining arzonligi barcha sohalarida internetdan foydalanish zaruratini olib keldi. Bu hodisalar ta'sirida yer yuzida ulkan axborotlar makoni - xalqaro internet tarmog'i yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda internet tarmog'idan foydalanuvchilar juda ko'payib ketgan, bularning aksari yoshlardan iborat. Internetning foydalari bilan birga uning zararlari haqida ham unutmaslik kerak.

Tibbiyot xodimlari, olimlar, Jahon Sog'likni saqlash tashkiloti (JSST) telefon, smartfon va kompyuterlarning odam organizmiga salbiy ta'sir etishini isbotlab berishgan. Ota-onalar "farzandlarimiz hech kimdan kam bo'lmasin", deb ularga smartfon, ayfon olib berib, o'zimiz noxush holatga sababchi bo'lyapmiz. Biz ushbu holatni unutib qo'yomoqdamiz. Omma-viy axborot vositalaridan yana bir qiziq va hayratlanarli holatni bildimki, har xil kompyuter o'yinlarini o'ylab topgan va shu orqali mil-

lion-million dollar pul topayotgan Amerika va Yevropa olimlari o'z farzandu nabiralariga kompyuter o'yinlarini o'ynashni taqiqlar ekanlar. Demakki, bu kompyuter o'yinlari yaxshilikka olib bormaydi.

Bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri, bu ijtimoiy tarmoqlarda guruh (profil, grupp, kanal, bot, sahifa va hokazo) ochish masalasidir. Bu masalada inson o'ta nozik va hushyor bo'lmasa, inson vafot qilgandan keyin ham savob yoki gunohi bu guruhni tuzib, tashkil qilganlarga yozilib turilaveradi. Chunki gohida tekshirilmagan xabar yoki gumon fitna va gunohga sabab bo'ladi. Ayniqsa, hozirgi turli xil nomlar bilan tashkil qilingan guruhlarda insonlarning sha'niga munosib bo'lmagan, masalan, birovning ustidan kulish, faxsh va unga targ'ib qiluvchi materiallar (maqola, audio, video yoki surat) larning tarqalishi odat tusiga aylanib bormoqda. Masalaning nozik jihatidan biri shundaki, dinimizga asosan ularni qancha odam ko'rsa, eshitsa, o'qisa uni tarqatganlar gunohkor bo'lishlaridan tashqari, shu ishni amalga oshirayotgan tashkilotlarning ham nomlariga shuncha gunoh, hatto vafot etgandan keyin ham yozilib borilaverar ekan.

Turli "prikollar", ko'ngilochar guruh, faxsh va pornografiyani targ'ib qiluvchi sayt yoki kanallar "odamlar bilan to'lgan". Afsuski, ushbu



saytlarni bizning yoshlarimiz ham ko'ryapti. Eng yomoni, keraksiz behuda narsalar bilan ovora bo'lish kishi umrining zavoli bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yoshlarimiz ishonchli manbalar (sayt, profil, grupp, kanal, bot, sahifa va hokazo) dan foydalanib, foydali ma'lumot va bilimlarni olishni bilishlari, g'iybat, faxsh va asossiz xabar tarqatuvchi yoki "prikollar" va masxarabozlikni targ'ib qiluvchi guruhlarini ko'rib, darhol unga a'zo bo'lish gunoh ekanligini bilishlari shart. Shunday ekan, qanday kanal, guruh, sahifalarni kuzatyapsiz, o'zingiz bilan hisoblashib qo'ying!

Xurshid VALIBEKOV,
jamoatchi muxbir.

O'QISH VA XIZMAT YILLARI ISH STAJIGA KIRADIMI?

Ish staji uchun beriladigan ta'tillarni hisoblashda xodimlarni harbiy xizmatda hamda oliy o'quv yurtlarida o'qigan davrlari ham ish stajiga kiradimi?

S. Abduvositov.

Ko'plab fuqarolarni qiziqtiradigan masalalardan biri harbiy xizmat yoki oliy ta'lim muassasasida o'tkazilgan yillar ish stajiga kirish-kirmasligidir. Bu, ayniqsa, mehnat ta'tilini hisoblashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat ta'tili nuqtai nazaridan: Mehnat kodeksining 226-moddasida har yili beriladigan asosiy mehnat ta'tili hamda 220-moddada nazarda tutilgan uzoq yillik mehnat faoliyati uchun beriladigan qo'shimcha ta'til huquqi

qaysi holatlarda berilgani aniq belgilangan. Aslida, agar jamoa kelishuvi, mehnat shartnomasi yoki tashkilotning ichki hujjatlarida alohi-



da tartib belgilanmagan bo'lsa, harbiy xizmatda bo'lgan vaqt yoki oliy o'quv yurtida o'qigan davr avtomatik tarzda ushbu ta'tillarni hisoblashda ish staji sifatida qabul qilinmaydi.

Boshqacha holat esa pensiyani hisoblashda yuzaga chiqadi. «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunning 37-moddasida ta'kidlanishicha, harbiy xizmatda bo'lgan, oliy ta'lim muassasalari, aspirantura, doktorantura, klinik ordinatura va shu kabi tuzilmalarda kunduzgi shaklda o'qigan shaxslarning mazkur faoliyatlari ish staji sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni mehnat ta'tilini hisoblashda harbiy xizmat va ta'lim davri, umumiy holatda, ish stajiga kirmaydi. Pensiya tayinlashda ushbu davrlar ish stajiga qo'shiladi.



VAQTINCHALIK MEHNATGA LAYOQATSIZLIK NAFAQASI QANDAY TO'LANADI?

Yangi ishga qabul qilingan xodimga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi qanday to'lanadi?

K. Karimov.

Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik (homiladorlik va tug'ishdan tashqari) nafaqasi miqdori nafaqa tayinlangan kundan umumiy ish stajiga qarab belgilanadi. Buning uchun xodimning mehnat daftarchasi (yoki elektron mehnat daftarchasi) yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa rasmiy hujjatlar asos qilinadi. Korxonada qancha vaqt ishlaganligi ahamiyatga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-son qarorining 1-ilovasi 22-bandiga asosan umumiy ish stajiga qarab quyidagi miqdorda nafaqa to'lanadi:

- 8 yilgacha staji bo'lgan xodimlarga o'rtacha oylik ish haqining 60 foizi miqdorida;
- 8 yil va undan ortiq staji bo'lgan xodimlarga 80 foizi miqdorida;
- 21 yoshga yetmagan chin yetimlarga 80 foiz miqdorida.

Baynalminal jangchilarga, 16 yoshgacha (o'quvchilar uchun 18 yoshgacha) bo'lgan uch va undan ortiq bolasi bor ota-onalarga, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan shaxslarga hamda avariya natijasida zararlangan hududdan evakuatsiya qilingan, radiatsiya ta'sirida kasallikka chalinganlarga, shuningdek, mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz bo'lganlarga, pandemiya, texnogen, tabiiy va ekologik favqulodda vaziyatlar yuzasidan karantinga joylashtirilgan va 14 yoshgacha bo'lgan bolasini parvarish qilgan shaxslarga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi o'rtacha oylik ish haqining 100 foizi miqdorida to'lanadi.

ISSIQ KUNLARDA ISHLAYOTGANLARGA QANDAY SHAROITLAR YARATILISHI KERAK?

Issiq kunlarda ishlayotganlarga korxonalar tomonidan qanday sharoitlar qilinishi kerak yoki imtiyozlar beriladi?

A. Solijonov.

Mehnat Kodeksining 205-moddasiga ko'ra, yilning issiq yoki sovuq mavsumida ochiq havoda yoxud sovitilmaydigan yoki isitilmaydigan yopiq xonalarda ishlaydigan, shuningdek yuk ortish-tushirish ishlarida band bo'lgan shaxslar uchun maxsus tanaffuslar beriladi. Ish beruvchi isitish, sovitish uchun asbob-uskunalar bilan jihozlangan va xodimlarning dam olishi uchun yaroqli bo'lgan xonalarni ta'minlashi shart. Bunday tanaffuslar taqdim etiladigan ishlarning ro'yxati, harorat ko'rsatkichlari, shuningdek ushbu

tanaffuslarning davriyligi va davomiyligi ish o'rinlarini mehnat sharoitlari hamda asbob-uskunalarining jarohatlash xavfi bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish asosida belgilanadi.



DORI VOSITALARI QAYTARIB OLINMAYDIMI?

Sotib olingan dorilarni qaytarish va boshqasiga almashtirish mumkinmi?

E. Valiyeva.


Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 185-son qarorining ikkinchi ilovasida "Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Bu Nizomning 39-bandiga asosan dorixonalardan sotib olingan dori vositalari va tibbiy buyumlar qaytarib olinmaydi va shunga o'xshash dori vositalari va tibbiy buyumlarga almashtirilmaydi.

PENSIYA TAYINLASHDA INOBATGA OLINADIMI?

Ikkita korxonada ishlansa, pensiya tayinlashda qaysi korxonadan olingan ish haqlari hisobga olinadi?

M. Dilshodov.

Qonunchilikka muvofiq, fuqaro ikki yoki undan ortiq bo'lgan korxona, tashkilotlarda ishlasa hamda ish joylaridan rasmiy shaklda ish haqi olsa, barcha ishlagan korxona, tashkilotlaridagi ish haqlari pensiya tayinlashda inobatga olinadi. Bu borada cheklovlar yo'q. Lekin ish stajlari asosiy ish joyi bo'yicha inobatga olinadi.



MASHINA HAYDOVCHINING ODOBLARI

ULUG' USTOZ ULAMOLARIMIZ BAYON QILIB BERGANLAR

Bularning aksi mo'min-musulmon insonga mutloqa to'g'ri kelmaydi

Mashinaga minishda yaxshi niyat bilan eng avvalo "Auuzu billahi minash shaytonir rojim!", "Bismillahir rohmanir rohim!" deb, o'ng qo'l bilan eshikni ochib, o'ng oyog'ini oldin bosib chiqishlik.

Mashinaga chiqayotib, salom berishlik.

Mashinaga minganda, qisqagina tilovat qilib, o'tganlarning haqlariga duo qilib, belgilangan duolarni o'qishlik.

Mashinada o'zini xuddi birovning uyida yoki jamoatchilik joyida o'tirgandek tutishlik.

Mashinani ichki va tashqi tomonlarini doim toza, ozoda va pokiza tutishlik.

Mashinaning texnik talablarini buzmasdan, ularga so'zsiz va to'liq rioya etishlik.

Mashinani har doim barcha joylari sozlangan va minishga yaroqli holda haydamoqlik.

Yo'lga chiqishdan oldin ulug'lar (ota-ona, ustoz, rahbar, o'zidan yoshi katta, ulug' inson, tabarruk odamlar)ning duolarini olib chiqishlik.

O'zi yaxshi ko'rganni o'zgalarga ham ravo ko'rishlik.

Bir-biriga nisbatan rahmdillik, mehr-oqibat, hurmat va bag'rikenglik bilan muomala qilishlik. Odamlar bilan muomalada hayo, uyatni unutmashlik.

Nafaqat insonlar bilan, balki hayvon, paranda, hasharotlar hatto o'simliklar bilan ham chiroyli xulq-odob bilan muomala qilishlik.

O'zidan kattalarni doim hurmat qilishlik. O'zidan kichiklarni doim izzat qilishlik.

Hargiz va hargiz boshqalarga noqulaylik tug'dirmashlik.

Hech kimga, hech qaerda va hech narsaga jahl qilmaslik!

Atrofdagilar bilan doim shirinsuxan bo'lishlik!

Yo'l asnosida atrofdagilarga biror savol bilan murojaat qilganda, javob bergan odamga minnatdorchilik izhor etishlik.

Mashina haydovchisi til, qo'l, oyoq va boshqa harakatlar orqali ham boshqalarga ozor berishi dinimiz ko'rsatmalariga aslo to'g'ri kelmaydigan amal. Chunki bunday ishlar muborak oyati-karimalar va hadisi-shariflarda qattiq qoralangan.

Yo'l harakat qoidalari va yo'lda yurish odoblariga to'liq va din-diyonat bilan rioya qilishlik.

Mashina bilan ham kechayu-kunduz ota-onaning xizmatlarini og'rinmasdan, mehr bilan bajarib, ularning bebaho, beqiyos va betakror duolarini olishlik.

Ulug'larning hurmatlarini joyiga qo'yishlik. Ularga nisbatan beodoblik qilmaslik.

Ulug'lar oldilaridan imkon qadar kesib o'tmaslik. Mabodo shunga majbur bo'lib qolgan holda, uzr aytib, kechirim so'rashlik. Imkon qadar ularning oldilariga tushib yurmaslik. Mabodo shunga majbur bo'lib qolgan holda, uzr aytib, kechirim so'rashlik.

O'z aka-uka, opa-singillariga mashina bilan ham mehribonlik qilib, doim xizmat-yumushlarini beminnat ado etishlik.

Qavm-qarindoshlar bilan yaxshi munosabatda bo'lib, qo'ni-qo'shnilar bilan chiroyli muomala qilib, issiq-sovuq kunlarida ham,

ular ehtiyoj sezganlarida ham mashina bilan ham beminnat xizmat qilishlik.

Inson zotining manfaati ko'zlab o'rnatilgan tartib-qoidalarga insof bilan, din-diyonat bilan rioya etishlik, yo'l belgilari talablarini hamda svetofor ishoralarini buzmaslik.

Og'ir bo'lib, bosiqlik va sabr bilan yurishlik.

Sira ham shoshilmaslik, zero shoshilish – shaytondandir.

Juda sekin ham harakatlanmaslik.

Kasalxona, qabriston, masjid, maktab va shu kabi joylarda imkon qadar signal chalmaslik, video-ovoz chiqarish uskunolari ovozi keskin pasaytirishlik. Agar mutloqa o'chirib qo'yilsa, yanada ulug'roq bo'ladi.

Har qanday katta-kichik yo'ldagi har qanday qabristonning ham yonidan o'tganda, tezlikni sezilarli darajada pasaytirishlik. Bu joylarda imkon qadar sekinroq harakatlanishlik.

O'tganlarimizning haqlariga duo qilishlik.

Har qanday katta-kichik yo'ldagi har qanday kasalxonaning yonidan o'tganda, barcha bemorlarning haqlariga duo qilishlik.

Quloqchin (naushnik) ishlatmaslik.

Imkon qadar telefonda gaplashmaslik.

Harakat davomida oynadan boshqa haydovchilar va yo'lovchilar bilan gaplashmaslik.

Avtomashina oynasidan turli narsalarni tashlab yubormaslik.

Bo'lar-bo'lmasga signal chalmaslik.

Mashinadagi (video, ovoz chiqarish) uskunolari ovozi baland qo'yish bilan o'zgalarga ozor bermaslik.

Ko'pchilik harakatlanayotgan joyda yurganda jamoatchilik odoblariga rioya qilish lozim.

Ehtiyojmandlarga tez-tez xayr-ehson, sadaqa qilib turishlik.

Uyda, ko'chada va barcha jamoat joylarida biror narsa umidvor bo'lib, so'rab kelgan insonni quruq qaytarmaslik.

Ko'pchilik harakatlanayotgan joylar ham xuddi majlislar kabi. Ularda ham majlislar odoblariga rioya qilgan kabi odob-axloq me'yorlariga rioya etish lozim bo'ladi.

Yo'l harakati asnosida ham Yong'in xavfsizligi, Tez tibbiy yordam va shu kabi tashkilotlarning mashinalariga imkon qadar yo'lni tezroq bo'shatib qo'yish lozim.

Mashina haydovchisi shovqin-suron, baqir-chaqir qilmasligi ham odobdandir. Zero baqir-chaqir, shovqin-suron qilishlik musulmon kishilarga mutloqa yarashmaydi.

Haqiqiy mo'min-musulmon kishi qachon, kimning oldida va qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, o'zini yuksak odob doirasida tutadi.

Kechki paytda boshqa haydovchilarning hamda piyodalarning ko'zlarini qamashtiradigan darajada yoritgichlarni yoqib yurmaslik.

Yo'lda sarson bo'lib, qiynalib turganlarga imkon qadar ko'maklashib, yordam berish-



lik – haqiqiy mo'min-musulmon kishining eng savobli ishlaridan hisoblanadi. Janobi Payg'ambarimiz Rasululloh sallallohu alayhi vasallam marhamat qildilar: "Kim bir musulmonga bu dunyoda yordam bersa, Alloh Oxiratda unga yordam qiladi".

Borayotgan manzilga bir oz yetmasdan 10-20 metr oldin to'xtashlik. Mabodo odamlar to'plangan joy bo'lsa, undan kamida 20-30 metr oldin to'xtashlik.

Borgan manzilga mashinani o'sha joyning eshigi, darvozasi, kirib-chiqish joyiga ro'para qo'ymaslik hamda atrofdagi odamlar va boshqa mashinalarga ham har tomonlama xalaqit bermaydigan darajada qilib qo'yishlik.

Kishi bilan xayrlashganda odamning oldida eshikni qattiq yopmaslik. Imkoni bo'lsa, bir oz yurgandan keyin yopishlik.

Uyga kelganda kelganini bildirish uchun yoki eshik, darvozani ochishlari uchun mashina signali bilan yoki o'z ovozi bilan boshqalarga ozor bermaslik.

Avtoullovni duch kelgan joyda qoldirmasdan, boshqalarga zarar bermaydigan joyni tanlash lozim.

Turli jamoat joylari (kasalxona, bozor, maktab, masjid, savdo markazlari, avtoturargoh va hokazo)da mashinani juda katta diqqat va nihoyatda jiddiy e'tibor bilan, mashinalarga ham, odamlarga ham mutloqa ozor yetkazmaydigan holda qilib qo'yishlik.

Hatto o'z uyining, o'z ishxonasining oldiga ham, biror joyga mehmonga borganda ham yoki biron yumush bilan to'xtaganda ham qo'shnilar, yo'lovchilarga aslo ozor bermaydigan, birovlarini yo'lini to'sib qo'ymaydigan qilib qo'yishlik.

Manzilga yetib borganidan keyin, Xudoga shukr qilib, mashinaga ham minnatdorchilik izhor etiladi.

O'zidagi mavjud ulovga doim shukr qilishlik.

Mehribon Parvardigorimiz o'zlarimizni ham, farzand-zurriyotlarimizni ham O'zi buyurgan, Janobi Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam tavsiya etgan, o'tmishda o'tganlarimizning ruhlari shod bo'ladigan, xalqimiz xursand bo'ladigan, ota-onalarimiz rozi bo'ladigan yo'llardan yurishimizni nasib etsin!

Ibrohimjon domla INOMOV.

KUN ISIGANDA UYG'ONADIGAN KASALLIK

Diareya va ichburug' bir ma'noni anglatadi, shunchaki ichburug' soddaroq, diareya esa ilmiy nom. U oshqozon va ichak muammolari natijasida paydo bo'ladigan kasallik bo'lib, organizm suyuqliklarni yetarli darajada singdira olmay qoladi va natijada hojatga tez-tez borishga majbur qiladi.

Diareyadan odamlar aksariyat hollarda suvsizlanish va ozuqa moddalarining ichaklarda yetarlicha so'rilmasligidan

aziyat chekadi. Ich ketishi qancha cho'zilsa, hayot uchun xavfli bo'lgan suvsizlanish xavfi shuncha yuqori bo'ladi. Odatda diareya biroz davolangandan keyin yoki o'z-o'zidan ham o'tib ketishi mumkin. Bu, ayniqsa, ovqatdan yengil zaharlanishda yuz beradi. Tana toksindan shu yo'l bilan qutulishga harakat qiladi. Ammo ikki kundan keyin ham to'xtamasa va tez-tez takrorlansa, tibbiy yordam talab qiladigan murakkab muammoga xos simptom bo'lishi mumkin.

DIAREYANING SABABLARI

Diareya har qanday yoshdagi odamlarda uchrashi mumkin bo'lgan keng tarqalgan kasallikdir. Ayniqsa, yosh bolalar ko'proq chalinadi bu kasallikka. Uning kelib chiqishiga odatda ifloslangan oziq-ovqat yoki ichimliklar, dori vositalari yoki oziq-ovqat allergiyalari sabab bo'ladi.

Ko'p hollarda ich ketishiga bakteriyalar, viruslar yoki parazitlar sabab bo'ladi. Masalan, salmonella, shigella yoki norovirus kabi mikro-organizmlar oshqozon-ichak yo'llarida infeksiya keltirib chiqaradi. Ba'zi odamlar laktoza yoki gluten kabi oziq-ovqat tarkibiy qismlariga sezuvchan bo'lishlari mumkin, bu esa ich ketishiga olib keladi.

Ba'zi dori-darmonlar, ayniqsa, antibiotiklar, ichakdagi yaxshi bakteriyalarga zarar yetkazadi va diareyaga sabab bo'lishi mumkin. Kron kasalligi va kolit kabi surunkali yallig'lanish kasalliklari ham diareyani keltirib chiqaradi. Ruhiiy holat ham oshqozon-ichak yo'llariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'pincha haddan tashqari stress va xavotirlik bilan bog'liq holatlar ich ketishini kuchaytiradi.



OVQATLANISH

Diareya paytida ovqat hazm qilish tizimi sezgir bo'lib qoladi, shuning uchun oddiy hazm bo'ladigan ovqatlarni iste'mol qilish kerak. Quyidagilar tavsiya etiladi:

Pishirilgan guruch – oson hazm bo'lib, oshqozonni qattiqlashtiradi.

Suvli sho'rva – suyuqlik yo'qotilganida juda foydali.

Banan, olma va nok tez hazm bo'ladi, yo'qotilgan kaliyning o'rne va organizmni kletchatkalar bilan to'ldiradi. Po'sti hazm bo'lmasligi va ichaklarga "yoqmasligi" sabab ham olma pyuresi mevasidan yaxshiroq hisoblanadi.

Shakar, yog' va sut qo'shmasdan tayyorlangan yorma hamda unli mahsulotlar ham diareyada samarali hisoblanadi.

NIMALARDAN TIYILISH KERAK?

Sutli mahsulotlar, yog'li, qovurilgan, achchiq go'sht, dukkakli mahsulotlar, yong'oq va pistalar, loviya va no'xat, xom sabzavotlar, jo'xori, sarimsoq va piyoz, chips, konfet va shakar o'rnini bosuvchilar qo'shilgan saqichlar, karam va brokkoli, quritilgan mevalar, yong'oq pastasi,



gazlangan ichimliklar.

Odatda organizm uchun foydali bo'lgan sabzavot tarkibidagi kletchatkalar diareyada teskari ta'sir qilishi mumkin. Shu sabab ham kraxmalli sabzavotlarni iste'mol qilish, gaz yig'ilishiga olib keladigan dukkakli, bargli sabzavotlar hamda jo'xoridan tiyilish kerak.

Peshob haydaydigan ta'sir ko'rsatuvchi spirtli va kofeinli ichimliklarni ham iste'mol qilmaslik kerak. Organizmda qancha ko'p suv saqlansa, shuncha yaxshi. Haddan ortiq issiq va sovuq ichimliklar o'rniga xona haroratidagisini iching.

OLDINI OLISH

Ich ketishini to'g'ri davolash uchun uning sabablarini bilish va ularni bartaraf qilish kerak. Kasallikning xiliga va sababiga qarab parhez qilishning ahamiyati katta. Masalan, ichakda bijg'ish jarayoni ustun bo'lsa, karbonsuvli ovqatlar (masalan, xamir ovqat, shirinlik) cheklanib, asosan, oqsilli ovqat (tvorog, tuxum, go'sht yoki baliq) buyuriladi, chirish jarayoni ustun bo'lsa, oqsilli ovqat (ayniqsa, go'sht, tuxum) o'rniga karbonsuvli ovqat (shirinlik, pishirib ezilgan sabzavot), ho'l meva, shovla, shirguruch, shirqovoq va sh. k. ovqatlar buyuriladi.

XAVFNI KAMAYTIRISH

Qo'llarni toza saqlash: Qo'llarni tez-tez sovun bilan yuvish yoki antiseptik vositalar qo'llash mikroblarning og'iz orqali kirishini oldini oladi.

Tartib bilan to'g'ri ovqatlanish: Ovqatni har kuni ma'lum soatlarda, shoshmasdan, me'yorida yeyish, oziq-ovqatni buzilish va aynishidan saqlash, ovqatni yaxshilab pishirish muhim.

Toza oziq-ovqat iste'mol qilish: Go'sht va sut mahsulotlarini to'g'ri saqlash va tayyorlash, oziq-ovqatni gigiena qoidalariga muvofiq iste'mol qilish zarur.

Ichimlik suvining sifati: Faqat toza va xavfsiz ichimlik suvi iste'mol qilish lozim. Iflos suv bilan ichak infeksiyalariga chalinish ehtimoli oshadi.

Zararkunandalardan saqlanish: Sabzavot va mevalarni yaxshilab yuvish, konserva mahsulotlarini xavfsiz saqlash ichak infeksiyalarini

kamaytirishga yordam beradi.

Hayajonlanish, ko'rishdan kelib chiqadigan (nevrogen) ich ketishining oldini olish uchun nerv tizimini chiniqtirish kerak. Me'da faoliyatining buzilishidan kelib chiqadigan ich ketishining oldini olish uchun me'da kasalliklarini davolash va oldini olish zarur. Qo'l, idish-tovoqni toza tutish, og'rigan tishni o'z vaqtida davolash kabi shaxsiy profilaktika choralari ko'riladi.

Stress va xavotir ichak faoliyatini kuchaytirishi mumkin. Tinchlanish uchun mashqlar yoki meditatsiya amaliyotlari bu borada yordam beradi. Bu nafaqat umumiy salomatlik uchun foydali, balki ichaklar faoliyatini ham me'yorda saqlashga yordam beradi.

QACHON SHIFOKORGA MUROJAAT QILISH KERAK?

Diareyaning yengil turida katta miqdorda suv va to'g'ri ovqatlanishning o'zi bilan ham chora ko'rsa bo'ladi, ammo og'irroq hollarda mutaxassisga borishni kechga qoldirmaslik kerak.

Qanday vaziyatlarda darhol chora ko'rish kerak?

Tug'ilganiga 3 oydan ko'p bo'lmagan chaqaloqlarda ko'ngil aynishi va ich ketishi kuzatilsa; Bolalarda ko'ngil aynishi va ich ketishi 12 soatdan ko'pga cho'zilsa;

Bolalar va kattalarda diareya 3 kundan ko'pga cho'zilsa.

Xavotirlanishga sabab bo'ladigan simptomlar.

Najasning qon aralash, qora va suyuq bo'lishi; Ichaklar bo'shaganidan keyin ham qorindagi og'riqning o'tib ketmasligi;

Suvsizlanishga xos alomatlar: bosh aylanishi, og'rig'i, holsizlanish va peshobning kam ajralishi;

Tana haroratining yuqori bo'lishi.

Shifokor ko'rsatmasisiz hech qanday dori qabul qilmang. O'zboshimchalik qilib jiddiy oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lib qolmang.

Sahifani shifokor Baxtiyor PARDAYEV tayyorladi.

METALLAR NIDOSI

METALLARNING XUSUSIYATLARI

(DRAMATIK LAVHA)

1-sahna



– Assalomu alaykum, qadrdonlarim! Sizlar xilma xil rangdagi bu kiyimlarni kiyib yasanib olganlarni taniysizlarmi? Meni-chi? Yo'q! – deysizlarmi? Unda avvalo o'zini tanishtiray. Men Rudaman. Yer osti va tog' jinslari orasida yashayman. Bu yerga meni tinib-tinchimas konchilar olib kelishdi. Eh, qo'yavering, ular meni qazib olishlari uchun ozmuncha urinishdimi? Tog'larni portlatib, ekskavatorlar yordamida mashinalarga ortib meni bu yerga olib kelishdi. Mening farzandlarim ko'p. Ular ham o'zlarini tanishtirishsin.

Marhamat, Cho'yan so'z senga.



– Rahmat, men sanoatda ko'p ishlatiladigan metall – cho'yanman. Meni ko'rib turibsizlar, qora rangdaman. Temir va uglerod qotishmalaridan tashkil topganman. Mendagi uglerod miqdori 2-4 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari tarkibimda kremniy, marganes, fosfor, oltingugurt kabi moddalar ham bor. Men juda qattiq va og'ir metallman. Lekin bitta kamchiligim bor.

– Men hazilni ko'tarmayman, ancha mo'rtman. Meni bolg'a bilan urib hazillashmang. Aks holda arazlab, sochilib ketaman.

2-sahna

Ruda mikrofonni olib dedi:



– Endi so'z navbati Po'latga.
– Minnatdorman, bobo. Akam Cho'yan haq gapni aytdi. Axir biz bitta oiladanmiz, qora metallar sulolasidanmiz. Shuning uchun tarkibimiz, fe'l atvorimiz ham bir-birimizga yaqin. Mening tarkibimda 2 foizcha uglerod bo'ladi. Men ham cho'yanga o'xshab juda qattiqman, biroq mo'rt emasman. Egilaman, bukilaman, ammo darrov sinmayman. Shuning uchun menga bolg'alash va kesish usullarida ishlov berish mumkin. Biz po'latlar Ruda bobomiz aytganlaridek, turli tuman ko'rinishdamiz. Masalan, mening yumshoq, qattiq, keskir, zanglamaydigan xususiyatlarga ega bo'lgan do'stlarim bor. Bizlardan tunukalar, simlar, quvurlar, mixlar, uy-ro'zg'or idish-tovoqlari, keskichlar tayyorlanadi. Men ham maqtansam bo'ladi. Chunki yaxshi xususiyatlarimiz ko'p. Issiqqa bardoshliman, kislotada erimayman, elektr tokini yaxshi o'tkazaman.

Bizning bobokalonimiz temir rudasi bo'ladi. Uni toplab pechlar-da eritishadi. Marten va EPESlarda maxsus qoliplardan o'tkazib turli navdagi prokatlar hosil qilishadi, sanoat zoldirlari tayyorlashadi.

3-sahna

Ruda:

– Men sizlarni qora metallar oilasi bilan tanishtirgan edim. Endi navbat rangli metallarga. Marhamat!



Alyumin:

– Mening ismim Alyumin. Rangli metallar oilasining a'zosiman. O'zim aslida oppoq bo'laman, men unchalik qattiq emas, zichligim kam bo'lganidan mendan presslash, shtampovkalash usulida ko'plab buyumlar yasash mumkin. Ayniqsa, elektr o'tkazgich simlar tayyorlashda asosiy o'rinni egallayman. Uzilib ketmasin deb bir necha tolalarni eshib elektr simlari tayyorlanadi, hatto atrofimizni po'lat tolalar bilan o'rab qo'yishadi. Bu ham bizga bo'lgan hurmat va e'tibordir. Vaznim yengilligi uchun meni mashinasozlik, kemasozlik va samolyotsozlikda ko'p ishlatishadi.

Tarkibimga biroz qalay qo'shib, qozonlar va choynaklar ishlab chiqishadi.

Sahnada ufqday mis paydo bo'ladi.



Mis:

– Hoy o'rtoqjon, o'zingni juda maqtayububordingmi? O'sha sen o'tkazadigan elektr tokini men ishlab beraman-a! Elektr toki hosil qiluvchi mashinalarning yakrlari, cho'lg'amlarini mendan tayyorlashlarini bilasan-a? Senga qaraganda vaznim ham zichligim ham yuqori. Qadimda o'zbek hunarmandlari mendan qumg'on, har xil lagan va shamdonlar yasaganlar. Endi o'rtoqjon, menda ham bitta kamchilik bor. Sening oppoq yuzing havoda qorayib qolgandek, mening ham qipqizil yuzim qoramtir bo'lib qoladi.

4-sahna

Bronza Misga qarab:



– Maqtaning-a, maqtaning! Sizdan qilingan tovoqda issiqqina polovxon to'rani yeb bo'lsa ekan, afsus, bir zumda zahringiz chiqib qoladi. Ammo ko'p kuyinmang, Mis aka, sizga yordam beruvchi ukalaringiz Latun va men doim yoningizdamiz. Kichik ukalaringiz Latunning texnikadagi xizmatlari

beqiyos. U ishqalanuvchi yuzalar-ning tekis, siliq harakatlanishini ta'minlaydi. Men Bronzadan esa turli nishonlar tayyorlashadi va odamlar ko'kraklariga maqtanib taqib yurishadi.

Suhbatga yaltiroq rangli qalay qo'shiladi. Qalay:



– Endi og'aynijonlar! Men sof haqiqiy qalayman. Juda tez eriymen. Shu sababli turli radio sxemalarini kavsharlovchi sifatida ishlatilaman. Haqiqiy qalaygina shunday vazifani bajara oladi. Meni tanlashda adashmang, ayniqsa, qo'rg'oshinga aralashtirmang. Yana bir sirni ochaylik. Agar mendan alyuminga biroz qo'shilsa, dur alyumin paydo bo'ladi. Mendan misga qo'shilganda bronza hosil bo'ladi. Demak mening qadrim chakki emas.

Suhbatni Rux davom ettirsin.

Rux:



– Men ham akajon rangli metallar oilasiga mansubman. Rangim havorang, oq. Men zanglamayman. Shuning uchun po'lat tunikalar sirtiga himoya vositasi sifatida meni qoplashadi. Mendan tunikasozlar paqir, tog'ora kabi ro'zg'or buyumlari tayyorlashadi.

– Balli, balli azamatlar! – dedi Ruda. Bizning urug'-aymoqlarimiz ko'p. Nodir, qimmatbaho rangli metallar – oltin, kumush va platinarni nihoyatda ehtiyotlash darkor. Aks holda... Bu hazil albatta.

Hurmatli metallurglar!

Ochig'ini aytganda, Sizning mahoratingizga hamisha tan beramiz. Chunki sizlar bizga xos xususiyatlarni bizning o'zimizdan ham yaxshi bilasiz. Ular bizning fizik, kimyoviy, mexanik xossalariimiz edi.

Parda yopiladi.

**Abdusalom ABDULLAYEV,
Baxtiyor OLIMOV.**

HIKMAT IZLAGANGA HIKMATDIR DUNYO

MUAMMO KIMNIKI?

Sichqon uyda yurar ekan bir chetga qopqon qo'yilganini ko'rdi.

Bir-ikki kundan keyin ho'rozning oldiga borib: "Ey xo'roz, kel shu qopqonni olib qo'yamiz. U hammamizga xalaqit beryapti", dedi. Xo'roz unga javoban "Bu mening muammo-im emas. Kimning muammosi bo'lsa, o'sha hal qilsin", dedi.

Sichqon: "Mayli", dedi-da, qo'yning oldiga borib, unga "Ey qo'y, kel shu qopqonni olib qo'yamiz. Bu hammamiz uchun xatarli", deb taklif qildi. Qo'y ham xo'roz singari "Buning menga aloqasi yo'q ekan. Muammo kimniki bo'lsa o'sha hal qilishi kerak", dedi.

Sichqon endi molning oldiga bordi: "Ey mol, shu qopqonni olib qo'yaylik. Bu hammamizga xalaqit berayapti". Mol: "Bu mening muammo-

im emas", dedi...

Kunlarning birida qopqonga ilon tushib qoldi. Chiqishga harakat qilib, uyoq-buyoqqa talpinib, shu yerda yurgan uy egasining ayolini chaqib oldi.

Xo'jayin ayolini kasalxonaga olib bordi. Yengil muolajadan keyin do'xtir xo'jayinga "Biz qo'limizdan kelganini qildik. Endi uyga olib borib, yaxshi ovqatlardan qilib bering. Tovuq sho'rva bo'lsa yanada yaxshi bo'lardi", dedi.

Xo'jayin uyga kelib qatakda xo'rozni so'yib, sho'rva qildi...

El-ulul: "Falonchining ayoli betob emish, borib yo'qlamasak bo'lmas", deb birin-ke-tin ziyoratga kela boshladi. Xo'jayin o'ylanib, "Qardosh, qarindosh, do'stlar - bari kelyapti. Endi bir ehson qilay", dedi-da, qo'radagi qo'yni



so'yishga jazm qildi...

Oradan ko'p o'tmay ayolning kasali og'ir-lashib, vafot etdi. Xo'jayin ma'rakalarni o'tqa-zish uchun molni ham so'yib yubordi...

...Masalning qiziq joyi shundaki, "Bu mening muammoim emas", deganlarning birontasi omon qolmadi. "Muammo meniki", deb jon kuy-dirgan sichqon esa hamon tirik...

HIKMATLAR XAZINASI

* Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi. Ey, dil! Na bitmas xazinasan, na davosiz dard.

* Har tongda senga ikki eshik ochiladi: biri — nolish eshigi, biri — shukr eshigi. Qaysi biridan kirsang kunni shunday o'tkazasan.


* Qaerga qarayotganingiz shunchalik muhim emas, qanday qarayot-ganingiz muhim... Chunki hayot niyatga ko'ra shakllanadi. Har kim hayotga o'z yurak oynasidan qaraydi va ko'rgan joyidagi narsani emas, faqat ko'rishni istagan narsasini ko'radi.....

* Har holni xayr, har kechani qadr, har kelganni Hizr bil!

* Foni bo'lgan ishq yo'qdir. Ishqlarning bari boqiydir. Farqi shuki, kimdir san'atkorning san'atini ko'rur, kimdir san'atkorning o'zini.

* Tun - fikr tozalanadigan vaqt. Shukr qilsangiz, ko'nglingiz yengil-lashadi. Duo qilsangiz, yuragingiz osoyishtalik topadi.

Jaloliddin RUMIY.



KULIB YURING...


Inson tanasidagi ko'plab organlar uxlaganda dam olar ekan. Yurak esa faqatgina inson kulganida dam olar ekan. Doim kulib yuring!

QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

KIM KIMDAN
TARQAGAN?

Darvin ta'limoti noto'g'ri. Odam maymundan emas, maymun odamdan tarqagan. Oyog'i yerdan uzilmaganlar odam bo'lib qolgan. Oyog'i yerdan uzilgan-lar esa maymun bo'lib daraxtga chiqib ketgan... Bu jarayon hamon davom etmoqda...

O'tkir Hoshimov.



"QO'NG'IROQ..."

- Allo... Bu menman...
- Ha oyi, tinchlikmi?
- Tinchlik, o'zing yaxshimisan?
- Oyi, shuni so'rash uchun telefon qilyapsizmi, soat necha bo'lganini bilasizmi?
- Bilaman bolam, 3 bo'ldi...
- Bilsangiz, yarim kechasi telefon qilib, bezovta qilishingiz shartmidi? Ertalab gaplashsak ham bo'lardiku!
- (Ona ko'zi yoshga to'lib javob berdi:)
- Bundan roppa-rosa 30 yil oldin shu soatda sen ham meni bezovta qilganding. Tug'ilgan kuning bilan bolajonim...

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Sohibqiron Amir Temur avlo-didan dunyo tan olgan qaysi buyuk olimni va yangi imperiyaga asos solgan buyuk sarkardani bilasiz?

Kombinatimizning po'lat zoldir-lar prokatlash stanida birinchi mahsulot qachon ishlab chiqaril-gan?

Yozuvchi Rasul Hamzatov mash-hur "Mening Dog'istonim" asarida nima haqida hikoya qiladi?

Unga belab pishirilgan yoki yog'da qovurilgan baliq kishini nima qiladi?

Temir-tersak parchalari-ni qayta ishlash sexi qachon Elektrda po'lat eritish sexi tarkibidan alohida ajralib chiqqan?

Javoblarni gazetaning ke-yingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

1946-yil 26-oktabr kuni kor-xonamizda prokat mahsulotlari ishlab chiqarish boshlandi.

1963-yilda korxonamiz sana-toriy-profilaktoriysi qurilib, ishga tushirilgan edi.

Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada.

Amerikalik tarixchi olim Sarton o'z asarida XI asrni "Beruniy asri" deb ta'riflaydi.

Avstraliya.

O'zbekistonda televidenie birin-chi ko'rsatuvini 1956-yilda namoy-ish qilgan.



Muharrir:

Ismadiyor MAMATQULOV

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

www.uzbeksteel.uz

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda O3-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.